

SO‘Z YASALISHI VA UNING LINGVISTIK ASOSLARI

Pardayeva Ruxsora Saidahmad qizi

O‘zMU Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti, Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili
yo‘nalishi 3-kurs talabasi ruxsorapardayeva61@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘z yasalishi hodisasi va uning lingvistik asoslari tahlil qilinadi. So‘z yasalishining til tizimidagi o‘rni, yangi leksik birliklarni hosil qilishdagi ahamiyati hamda derivatsion jarayonlarning nazariy asoslari yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek tilida so‘z yasalishining asosiy usullari va vositalari, ularning semantik hamda grammatik xususiyatlari misollar asosida tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida so‘z yasalishi tilning lug‘aviy boyligini oshiruvchi, uning rivojlanishi va takomillashuvini ta‘minlovchi muhim lingvistik mexanizm ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, so‘z yasalishi bo‘yicha ilk tadqiqotlar va uning natijalari ham ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: so‘z yasalishi, derivatsiya, derivatologiya, affiksatsiya, kompozitsiya, leksik-semantik usul, morfema, leksema, yasama so‘z, o‘zbek tili.

СЛОВООБРАЗОВАНИЕ И ЕГО ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Пардаева Рухсора Саидахмад кизи

Студентка 3 курса факультета журналистики и узбекской филологии
Национального университета Узбекистана, направление «Филология и обучение
языкам: узбекский язык» E-mail: ruxsorapardayeva61@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется феномен словообразования и его лингвистические основы. Освещено место словообразования в языковой системе, его важность в формировании новых лексических единиц, а также теоретические основы деривационных процессов. На примерах проанализированы основные методы и средства словообразования в узбекском языке, их семантические и грамматические свойства. В результате исследования доказано, что словообразование является важным лингвистическим механизмом, увеличивающим словарный запас языка, обеспечивающим его развитие и совершенствование. Представлены также первые исследования словообразования и их результаты.

Ключевые слова: словообразование, деривация, деривационология, аффиксация, композиция, лексико-семантический метод, морфема, лексема, словосочетание, узбекский язык.

WORD FORMATION AND ITS LINGUISTIC FOUNDATIONS

Pardayeva Ruxsora Saidahmad kizi

3rd-year student of the Faculty of Journalism and Uzbek Philology, National University of
Uzbekistan, Major: Philology and Language Teaching (Uzbek Language) E-mail:
ruxsorapardayeva61@gmail.com

Abstract: *This article analyzes the phenomenon of word formation and its linguistic foundations. The place of word formation in the language system, its importance in the formation of new lexical units, and the theoretical foundations of derivational processes are highlighted. Also, the main methods and means of word formation in the Uzbek language, their semantic and grammatical properties are analyzed based on examples. As a result of the study, it is substantiated that word formation is an important linguistic mechanism that increases the vocabulary wealth of the language, ensures its development and improvement. The first studies on word formation and their results are also presented.*

Keywords: *word formation, derivation, derivationology, affixation, composition, lexical-semantic method, morpheme, lexeme, made-up word, Uzbek language.*

KIRISH

Soʻz yasalishi mavzusi tilshunoslikda, ayniqsa, grammatik qurilish va leksik boylikning shakllanishida muhim oʻrin egallaydi. Chunki soʻz yasalishi orqali tilimizda yangi soʻzlar vujudga keladi, ularning grammatik mansubligi – yaʼni qaysi soʻz turkumiga tegishliligi aniqlanadi.

Bu esa tilning boyishi, izchil va aniq tuzilishga ega boʻlishida asosiy omillardan biridir. Bu mavzu aynan Tilshunoslik sohalari boʻyicha tahlil qilinganda ham barchasiga tegishli qismlardan biridir.

Sababi birgina leksema – lugʻaviy birlik boʻlib, uning yasalishi, omonim, sinonim, antonim va paronimlik qatorida qatnashishi leksikologiya boʻlimi bilan, qaysi soʻz turkumda ekanligi morfologiya bilan, lugʻatga kiritilishiga koʻra leksikografiya bilan oʻzaro bogʻliq. Har bir til oʻz tarixi va maʼdaniyatiga ega. Uzoq tarixga nazar tashlanganda, inson hayoti va uni oʻrab turgan borliqdagi narsalarga bora-bora ehtiyoj seza boshlagan.

Ulardan foydalanish, sayqallash, ishlov berish natijasida yangi bir buyum yasashi insonlarning turmush tarziga aylanib bordi. Hattoki ularga nom berishda ham u predmetga bogʻliq boʻlgan belgilardan foydalanishgan, masalan, holati, shakli, hajmi, rang-tus va maza-taʼmi inobatga olingan. Misol uchun, muloqotda koʻp qoʻllaniladigan “qishloq” soʻzini asos va qoʻshimchaga ajratish uchun ham makon-zamonga bogʻliq jihatlari mavjud. Qadimgilar qishloqlarga faqat qishlash uchun borishgan va shuning uchun ham qishla+q tarzida ajratilgan.

Bugungi kunga kelib shaharning chekka hududida yashovchi insonlar har mavsumda oʻzlari muqim oʻrnashgan hududlarida istiqomat qilib kelishmoqda, faqat qish faslida qishloqda yashashmayapti.

Shuning uchun ham bugungi kunda qishloq soʻzi bitta asosga olinadi. Bunday holatda tadqiqotchilar har bir soʻzning kelib chiqish tarixini oʻrganishi zarurdir. Shu oʻrinda soʻzlar omonimlik shakliga ega boʻlgani kabi qoʻshimchalarning ham omonimlik shakllari mavjud.

Masalan, -ma qo'shimchasi: qil+ma – bo'lishsizlik shakli, yoz+ma ish – sifat yasovchi, tort+ma (javon tortmasi) ma'nosida kela oladi. -be, -siz, -no sifat yasovchi qo'shimchalari sinonimlikni hosil qilsa, bu qo'shimchalarga -ser, -li, -mand qo'shimchalari antonimlik qatorini hosil qiladi: o'rinli – noo'rin gapirdi, behayo – hayosiz qiz, odobli – odobsiz farzand. Bugungi kunga kelib tilshunoslikning o'ziga xos mustaqil yo'nalishiga aylanib bo'lgan "Derivatologiya" sohasi ham leksik planda, ya'ni so'z yasash mazmunida ishlatilib kelinadi. Derivatsiya tushunchasi so'z yasash jarayonlarini belgilashda so'z yasash terminiga tenglashtiriladi, til shakllarini so'z chegarasidan tashqarida yasash jarayonlariga nisbatan qo'llanila boshlandi. Derivatsiya tushunchasining kengayishi natijasida derivatsion jarayonlarni matn darajasida tadqiq qilishga olib keldi va derivatologiya tomonidan o'rganila boshlandi.

Asosiy qism

So'z yasashi hodisasining morfologik formalardan farqli hodisa ekanligini idrok etish va ilmiy asoslash ham ko'p bosqichli, davomli izlanishlar natijasida yuzaga kelgan ana shunday xulosalardan biridir.

Hozirgi kunga kelib tilshunoslar tomonidan so'z yasashini tildagi alohida hodisalardan biri sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'lgan omillarni ham yaqin tarix bilan bog'lab bo'lmaydi. Zotan, so'z yasashi haqidagi dastlabki nazariy qarashlar, bir tomondan, tilning lingvofalsafiy masalalar muhokamasi bilan, ikkinchi tomondan esa, so'z va uning morfologik strukturasini tadqiq etish borasida to'plangan tajribalar natijasida o'z ibtidosiga ega bo'la boshlagan edi.

O'tgan asrning boshlarida Abdurauf Fitrat tomonidan yaratilgan o'zbek tiliga doir qo'llanmada, shuningdek, A.N. Kononov va V.V.Reshetov kabi olimlar tomonidan chop ettirilgan darsliklarda ham tilshunoslik tarixida yuzaga kelgan ana shu an'ananing ta'sirini kuzatish mumkin. Shu o'rinda A.M.Shcherbak tomonidan bildirilgan quyidagi mulohaza bunga misol bo'la oladi: «So'z turkumlarida morfologik qonuniyatlarga to'la bo'ysunmaydigan, nisbiy mustaqil ichki hodisa mavjud»ligi haqidagi mulohazasi e'tiborlidir.

A.M.Shcherbakning fikricha, so'z yasashi so'z turkumlarida ikkilamchi asoslarni vujudga keltirish bilan ajralib turadi. Ikkilamchi asos tushunchasi esa so'z yasashi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular so'z yasovchi affikslar vositasida hosil bo'ladi. A.M.Shcherbakning bu fikri so'z yasash hodisasi talqinida tub burilishga sabab bo'ldi deya olmasak ham, tilda so'z yasashining alohida hodisa ekanligiga doir o'z davrining ilg'or qarashlardan biri sifatida e'tiborga loyiqqligini isbotladi.

Fanda vujudga kelgan har qanday yangicha qarash qisqa davr ichida va bir yo'la mukammallikka ega bo'la olmaydi, o'z navbatida, vaqt o'tishi bilan tatbiq etilgan har qanday yangilikni mutlaq mukammal deb bo'lmaydi. Buning o'ziga xos dalilini so'z yasashining goh morfologik, goh leksik hodisa sifatida talqin etilishi misolida kuzatish mumkin.

O'zbek tilshunosligida birinchilar qatorida so'z yasashi asosida maxsus tadqiqot olib borgan A.G'ulomovning 50-yillarda e'lon qilgan maqolalaridan birida so'z yasashi tadqiqining bu davridagi holatiga doir quyidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin: «So'z yasashi masalasini biz hozirgacha morfologik planda qarab kelimiz, holbuki, so'z yasashi

qanday bo'lmasin, biror usul bilan yangi so'z hosil qilishdir. Demak, u leksika - so'z bahsiga qarashlidir. Eski grammatik ta'limotga ko'ra, so'z yasalishi va so'z o'zgarishi morfologiyada qaralardi. Haqiqatda esa, bular formal jihatdan o'xshash, funksional jihatdan boshqa-boshqa hodisadir: birinchisi-leksik hodisa, ikkinchisi-sintaktik hodisadir», - deb yozgan edi. Jumladan, so'z yasalishining hozirgi maqomga ega bo'lishida umumiy tilshunoslikda G.O.Vinokur, N.A.Yankotrinskaya, A.N.Tixonov, Ye.S.Kubryakova, V.V.Lopatin, I.S.Uluxanov, N.M.Shanskiy kabilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda muhim o'rin tutgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida U. Tursunov, Z. Ma'rupov, A. G'ulomov A. Madraximov, B.Madaliyev, A.Hojiyev kabilarning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyatga ega bo'ldi. XX asrning 30- yillarida turk tilidagi so'z yasalishi masalasi bilan jiddiy shug'ullanishga astoydil kirishgan. XX asrning 30-40-yillarida o'zbek tilshunosligida Ulug' Tursunning "O'zbekchada fe'llarning yasalishi", Zokir Ma'rufovning "O'zbek tilida ot yasovchi suffikslar" nomli maxsus asarlari yaratildi. Biroq so'z yasalishi hodisasini o'rganish bo'yicha hali maxsus tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan edi. M.A.Jo'rabayeva 1975-yilda "O'zbek tilida affiksali omonimiya" mavzusidagi nomzodlik ishini himoya qiladi. U qo'shimchalarning omonimik munosabat hosil qilish masalasini o'rganishni tadqiqotining obekti qilib belgilagan. Professor Y.Tojievning "O'zbek tilida affiksali sinonimiya" mavzusidagi 1991-yilda himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasining birinchi bobi o'zbek tilidagi ot yasovchi qo'shimchalarning sinonimik munosabat hosil qilish masalasiga bag'ishlanadi.

So'z yasash yangi ma'noli so'z hosil qilish demakdir, albatta. So'z yasalishi lug'aviy ma'noning o'zgarishi asosida vujudga kelib, yasama so'z ko'pincha bir turkumdan boshqa turkumga ko'chadi. Shu ma'noda so'z yasash hodisasi so'zning grammatik jihatidan o'zgartiradigan hodisadir. Masalan, gul, ish so'zi ot turkumiga xosligi uchun otga xos ko'plik qo'shimchasi, egalik, kelishikni olib turlanadi: gullar, gullarning, gullarga; ishlar, ishlarning, ishlarga kabi. Bu so'zga fe'l yasovchi -la qo'shimchasi qo'shilganda hosil bo'lgan so'z ko'plik va kelishik qo'shimchalarini olmaydi, turlanmaydi, balki tuslanadi. Chunki bu holatda so'z grammatik jihatdan o'zgarib, bir kategoriyadan boshqa kategoriyaga o'tadi. Bir turkumdan boshqa turkumga o'tganda so'zlarda hosil bo'ladigan o'zgarishlar kategorial o'zgarishlar deyiladi. Masalan, vijdonan so'zining o'zagi (vijdon) ot, unga yasovchi -an qo'shimchasi qo'shilganda so'z boshqa kategoriyaga ko'chdi, ya'ni kategoriya o'zgaradi. Bunda otidan sifat yasaldi deyiladi. So'z yasalishi bilan bog'liq ravishda so'zning lug'aviy va grammatik ma'nolari ham o'zgarishi mumkin. So'z yasaliş til uchun ijobiy hodisadir. U tilni lug'aviy jihatdan boyituvchi manbalardan biridir. So'z yasash tildagi boshqa sohalar bilan, xususan, lug'at va grammatika bilan uzviy bog'liq. So'z yasalishi natijasida so'zning shakli o'zgaradi. Yangi ma'no bilan birgalikda yangi shakl vujudga keladi. So'z yasalishi paytida hosil bo'ladigan shakl bilan so'z o'zgartiruvchi va shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar orqali vujudga keladigan shakl orasida o'xshashlik bor. Shakl yasalishi - so'zning u yoki bu grammatik ma'no ifodalovchi shaklining hosil qilinishi. Bunda yangi so'z yasalmaydi, qo'shimcha ma'no yuklatiladi. 2-usulda o'rganish mumkin:

1. Analitik - ikki va undan ortiq so'zlarning birikib, butunlay yangi bir ma'noni anglatuvchi yagona so'zga, ya'ni qo'shma so'zga aylanish jarayonidir. Misol uchun, beshbarmoq, muzyorar, qabul qilmoq, xat qilmoq.

2. Sintetik – shakl yasovchi affikslar (qo'shimchalar) yordamida hosil bo'ladi. Masalan, otlardagi egalik, ko'plik, kelishik, fe'lning mayl, zamon, nisbat, shaxs-son, sifat va ravishlardagi daraja shaklini yasovchi affikslardir. Shuningdek, xoslikni ifodalovchi -niki, otlardagi erkalash, kichraytirish, hurmat va o'xshatish shakllari kiradi. Misol uchun, bog'imiz, suvdan, meniki, quyoshday kabilar.

O'zbek tilida so'z yasashining affiksatsiya, kompozitsiya, semantik, abbreviatsiya kabi usullari bor. O'rik- va -zor, -lar, -ga qismlari o'zaro semantik va qo'llanish xususiyati jihatidan farqlanadi. O'rik birligi mustaqil lug'aviy ma'noga egaligi va bu ma'noni qolgan qismlarsiz ham anglati olish xususiyati bilan boshqa tarkibiy qismlardan ajralib turadi. Shuning uchun u leksema deyiladi. Boshqa qismlar esa ajralgan holda mavhum bo'lishi, leksemasiz mustaqil ma'no anglati olmasligi bilan xarakterlanadi. Leksema-shakllanuvchanlik, morfema esa shakllantiruvchanlik belgisiga ega. Nomustaqillik tabiati va leksemaga shakl berish vazifasiga xoslanganligi ularni morfema deb atashga olib kelgan. Morfemaning nutqiy ko'rinishi qo'shimcha deyiladi. Tilimizda yordamchi so'z deb ataluvchi katta guruh ham bor bo'lib, leksema va morfema sirasida «oraliq uchinchi» maqomida bo'ladi. Shuning uchun ularni leksema-morfema deyish mumkin. Yordamchi so'zning leksemaligi shundaki, u mustaqil so'z kabi ajralganlik xususiyatiga ega. Biroq shakllanuvchanlikka ega emas. Lug'aviy ma'noga ega emasligi ularni morfemik maydon sari tortib turadi : bilan, uchun, sari, va, lekin. -u, -yu.

Leksema tarixiy taraqqiyot natijasida morfemaga aylanib borishi, morfema esa so'zning o'zagiga singib ketishi mumkin. Masalan, xona leksemasi taraqqiyot natijasida ikkiga ajralgan. Bir ma'nosida «joy» semali yasama so'zni hosil qiluvchi derivatsion vositaga aylanib ketgan, leksemalikdan mahrum bo'lgan. Noma, goh, xo'r leksemasi ham shunday tarixiy siljishni boshidan kechirgan. O'zbek tilida so'z yasashining yana bir usuli - abbreviatura usulidir. Bu usul bilan qisqartma so'zlar hosil bo'ladi: BMT, MDH, DAN kabi. Bu usul bilan so'z yasash faqat ot turkumi uchun xosdir. Shu kabi ma'lumotlarni, ya'ni o'zbek tilida so'z yasash usullarini nafaqat tilshunoslar, balki har bir o'z tilini sevadigan inson yaxshi bilishi zarur. Zero, so'zlarni to'g'ri va o'z o'rnida qo'llashimiz bizni tilimizni qay darajada bilishimizni anglatadigan bir ko'zgudir.

Xulosa

Til bu - jamiyatning eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri bo'lib, uning rivojlanishida doimiy takomillashuv va yangilanish muhim rol o'ynaydi. So'z yasashi esa til taraqqiyotining eng asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib, u orqali nafaqat yangi so'zlar yaratiladi, balki mavjud birliklar yangicha grammatik va semantik shakllarga ega bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'z yasashi tildagi leksik boylikning asosiy manbai, grammatik strukturaviy birliklarning negizi hamda nutqning ifoda vositalarini kengaytiruvchi kuchli tilshunoslik hodisasidir. So'z yasashi orqali tilda paydo bo'ladigan yangi birliklar nafaqat yangi nomlar yaratadi, balki mavjud birliklarning sintaktik va funksional imkoniyatlarini ham o'zgartiradi. So'z yasashining morfologik, sintaktik, leksik-semantik, fonetik va abbreviatsion yo'nalishlari mavjud bo'lib, har biri o'z qonuniyatlariga ega. Shuningdek, «derivatsiya» atamasi asosida yondashilgan zamonaviy talqinlar so'z yasashining ilmiy asoslarini yanada boyitmoqda.

Soʻz yasallishining ilmiy va amaliy ahamiyati beqiyosdir. Nazariy jihatdan u tilshunoslikning morfologiya, leksikologiya, sintaksis, semasiologiya kabi boʻlimlari bilan bevosita aloqador boʻlsa, amaliy jihatdan esa til madaniyati, adabiy nutq, lingvodidaktika kabi sohalarida keng qoʻllaniladi.

Bundan tashqari, soʻz yasallishi jarayoni zamonaviy tilshunoslikning neologizm, terminshunoslik, ijtimoiy tilshunoslik kabi yoʻnalishlarida ham dolzarb masalalardan biri boʻlib qolmoqda. Soʻz yasallishi faqatgina grammatik jarayon emas, balki butun til tizimini shakllantiruvchi, uni boyituvchi, zamonga moslashtiruvchi va til foydalanuvchisining tafakkur olamiga bogʻliq boʻlgan koʻp qirrali va murakkab hodisa ekanligi isbotlandi. Bu boradagi izlanishlar har doim dolzarb boʻlib qoladi va doimiy ilmiy tahlil va metodik yondashuvni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR:

1. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 2021.
2. Sayfullayeva R. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent. 2022.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 2022.
4. Abdullayev F., Ibrohimova F. Oʻzbek tilida boshqaruv. Monografiya. T., 2021-yil.
5. Oʻzbek tili grammatikasi II tom. T., 2023.
6. www.ziyonet.uz
7. www.lex.uz
8. www.edu.uz
9. www.natlib.uz
10. www.arxiv.uz